

TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil  
yanvar-dekabr*



## TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **2 992,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **52,9** ming kishiga yoki **1,8 %**ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 495,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,98 %**), qishloq aholisi soni **1 496,8** ming kishi (**50,02 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**2 992,6** *ming kishi*

### Tabiiy o'sish

**+58,7** *ming kishi*

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar



**49,98%**

#### Qishloq



**50,02**

### Aholining tabiiy harakati, kishi

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2021- yil	2022- yil	o'sish, kamayish, +/-	2021- yil	2022- yil
Tug'ilganlar	72 659	73 512	853	24,9	24,8
O'lganlar	18 121	14 801	-3 320	6,2	5,0
Nikohlar	25 692	23 173	-2 519	8,8	7,8
Ajralishlar	4 086	5 098	1 012	1,4	1,7
Ko'chib kelganlar	35 265	27 350	-7 915	12,1	9,2
Ko'chib ketganlar	40 333	33 119	-7 214	13,8	11,2


## Toshkent viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2022- yil yanvar-dekabr



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining **29,9 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,7 %**i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,4 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Jinsi bo'yicha aholi tarkibi**
*2023- yil 1- yanvar holatiga*

**Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
*1- yanvar holatiga, kishi*

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, %da
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	2939697	2992639	101,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	52740	54117	102,6
Olmaliq	135 228	138443	102,4
Angren	174 436	178483	102,3
Bekobod	100 008	101991	102,0
Chirchiq	164 822	167982	101,9
Ohangaron	40 020	40711	101,7


Yangiyo‘l	79 868	81 908	102,6
	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	<b><i>O‘shish sur‘ati, %da</i></b>
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	108259	110211	101,8
Ohangaron	107072	109118	101,9
Bekobod	160359	163112	101,7
Bo‘stonliq	172762	175246	101,4
Bo‘ka	130184	132563	101,8
Quyichirchiq	111898	114203	102,1
Zangiota	167446	167157	99,8
Yuqorichirchiq	134499	137350	102,1
Qibray	172318	172871	100,3
Parkent	172168	175172	101,7
Piskent	103552	105075	101,5
O‘rtachirchiq	133247	134697	101,1
Chinoz	139219	142624	102,4
Yangiyo‘l	191919	196795	102,5
Toshkent	187673	192810	102,7

Aholi soni viloyat hududlarida 2023-yil 1-yanvar holatiga eng ko‘p aholi soni Toshkent tumanida 102,7%, Nurafshon shahrida 102,6% ga aholi soni o‘sgan.





Hududlar kesimida Zangiota tuman 99,8% ga aholining pasayishi kuzatildi.

**OAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR**

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (%)**

2022- yil yanvar-dekabr, kishi




2022- yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 73 512 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (72 659 kishi) nisbatan 853 taga ko‘paygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 24,8 promilleni tashkil qildi.

**Tug‘ilganlarning taqsimlanishi**
**Yanvar-Mart**

**Yanvar-Iyun**

**Yanvar-Sentabr**

**Yanvar-Dekabr**



## O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, kishi




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **66,2** %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,8** %i – o‘simtalardan, **6,1** %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **2,0** %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,7** %i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **4,7** %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **9,5** %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## VAFOT ETGANLAR




## Vafot etganlarning taqsimlanishi


### Yanvar-Mart




### Yanvar-Iyun



### Yanvar-Sentabr




### Yanvar-Dekabr



## Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar dekabr, kishi




■ Vafot etganlar, birlik ■ Vafot etganlar koeffitsiyenti, promille

2022- yil yanvar-dekabr oylarida 14 801 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.






## QAYD ETILGAN NIKOHLAR




### Nikohlarning taqsimlanishi

#### Yanvar-Mart




### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2022- yil yanvar-dekabr, birlik




#### Yanvar-Iyun



#### Yanvar-Sentabr




#### Yanvar-Dekabr



Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Nurafshon shahar (1,7 promillega) kuzatiladi. Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Ohangaron shahar (0,5 promillega) O'rtachirchiq tuman 3,5 promillega kuzatiladi.




## NIKOHDAN AJRALISHLAR




## Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi


## Yanvar-Mart




## Yanvar-Iyun



## Yanvar-Sentabr




## Yanvar-Dekabr



## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-dekabr, birlik




2022- yil yanvar-dekabr oylarida **5 098** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **1,4** promille bo'lgan).



## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr

### farzandsiz ajrashgan



1 nafar  
farzand  
bilan  
ajrashgan

### 2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **37,8** %i farzandsiz, **41,0** %i bitta farzand bilan va **21,2** %i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



**Aholining migratsiya ko'rsatkichlari**
*(yanvar - dekabr)*
*(kishi)*

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>35 265</b>	<b>27 350</b>	<b>40 333</b>	<b>33 119</b>	<b>-5 068</b>	<b>-5 769</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	1 003	639	450	405	553	234
Olmaliq	1 422	1 470	1 938	1 342	-516	128
Angren	1 637	976	1 487	1 169	150	-193
Bekobod	841	670	1 060	778	-219	-108
Chirchiq	3 433	2 604	2 672	2 027	761	577
Ohangaron	953	775	530	439	423	336
Yangiyo'l	1 489	846	949	655	540	191
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	411	346	854	637	-443	-291
Ohangaron	793	869	1 148	836	-355	33
Bekobod	681	466	1 299	956	-618	-490
Bo'stonliq	870	999	1 718	1 040	-848	-41
Bo'ka	762	391	1 069	826	-307	-435
Quyichirchiq	1 062	836	1 395	798	-333	38
Zangiota	3 084	2 721	6 446	6 554	-3 362	-3 833
Yuqori Chirchiq	3 275	1 896	1 513	1 527	1 762	369
Qibray	3 639	2 665	3 125	5 559	514	-2 894
Parkent	373	410	919	560	-546	-150
Piskent	730	461	954	881	-224	-420
O'rta Chirchiq	2 070	1 518	4 059	2 736	-1 989	-1 218
Chinoz	1 377	981	1 129	590	248	391
Yangiyo'l	2 441	1 991	3 572	1 386	-1 131	605
Toshkent	2 919	2 820	2 047	1 418	872	1 402

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 71 202-86-78*